

## О'Z - О'ZINI BAND QILISH - KAMBAG'ALLIKDAN CHIQRISHNING SAMARALI YO'NALISHI

*A. Mutalov - "Al Fraganus"  
Universitet professori*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola, mamlaratimizda muhim ijtimoiy muammo - kambag'allikni kamaytirishning muhim omili bo'lgan - aholini o'z - o'zini band qilish yo'nalishining paydo bulishi, shu faoliyat bilan shug'ullanuvchilar huquqlari va imkoniyatlari, ularni hisobga olish va faoliyat turlarini kengaytirish yo'llari ilmiy asoslab berilgan.

**Kalit so'z:** o'z - o'zini band qilish, ular huquqlari, ularni hisobga olish, o'z - o'zini band qiluvchilar faoliyati turlari, soliq.

### Kirish

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoev xalqimiz hayotdan rozi bo'lib farovon yashashiga e'rishishni o'zining oliy maqsad deb bilishiga xalqimiz bilgan uchrashuvlarda doimiy ravishda shu masalaga juda katta ahamiyat berishlaridan bilishimiz mumkin.

Sh.Mirziyoev o'zining Oliy Majlisga va xalqqa qilgan murojaatida eng muhim vazifalardan biri sifatida kambag'allikka qarshi kurashning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida o'z - o'zini band qilish yo'nalishi e'kanligini ko'rsatib o'tdi, chunki bu yo'nalish bir tarafdin fuqarolarga kambag'allikdan chiqish uchun daromad keltirsa, ikkinchi tarafdin ularga kelajakda pensiya olish uchun ish staji beradi va uchinchi tarafdin bozorni turli hil zaruriy mahsulotlar bilan to'ldirishga va shu yo'l bilan mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotini kam bo'lsa ham ko'paytirishga o'z hissalarini qo'shish imkoniyatini beradi.

### Asosiy qism

Mamlakatimizda o'z - o'zini band qilish Prezidentimizning sa'yi xarakatlari natijasida maxsus qarorlari bilan 2019 yilda yo'lga qo'yilgan bo'lib, keyunchalik 2020 yil 8 iyundagi PK - 4742 sonli "Tadbirkorlik faoliyati va o'z - o'zini band qilishni davlat tomonidan tartibga solishning soddalashtirish chora tadbirlari tug'risida"gi qarori qabul qilingandan so'ng, o'z - o'zini band qilish bilan shugullanuvchilar sony keskin ko'paya boshladi. Masalan, o'zini o'zi band qilganlar sony 2023-yil yanvar holatiga ko'ra 1333.6 ming kishini tashkil e'tgan bo'lsa, 2023-yil dekabr holatiga ular sony 1571.3 mingtaga yetib, yil boshiga nisbatan 29.8%ga oshgan. Bunga esa ular shug'ullanishi mumkin bo'lgan faoliyat turlarining uzluksiz kengayib borishi sabab bo'lmokda. Xozirgi paytda ular turi yuzga yaqinlashib qo'ldi, ular ichida an'anaviy faoliyat turlari bilan birga, zamonaviy faoliyat turlari paydo bo'ldi. Masalan, dasturchi, veb-ishlab chiquvchi, kompyuter ustasi, ma'lumotlar tahlilchisi, tizim ma'muri kabi faoliyat turlari paydo bo'ldi va tobora kengayib bormoqda.

O'z - o'zini band qilgan shaxslarni ro'yxatga olish mutlaqo tekinga xabar berish tartibida o'z - o'zini band qiluvchi sifatida ro'yxatdan o'tganlikni tasdiqlovchi QR-kod olgan holda maxsus mobil ilova yoxud soliq to'lovchining shaxsiy kabineti orqali amalga oshiriladi.

E'ndi masalaning e'ng muhim qismiga o'tadigan bo'lsak, bu erda quyidagi imtiyozlarni ta'kidlab o'tish zarur:

1. O'z - o'zini band qilish bilan shugullanuvchilarning o'z mehnat faoliyati natijasida olingan daromadlari (Yangi kiritilgan tartib bo'yicha 1 milliarddan oshmagan miqdoridan) jismoniy shaxslar jami daromadlari tarkibiga kiritilmaydi va ular hech qanday soliqqa tortilmaydi.

2. Kelajakda pension miqdoriga ta'sir qiluvchi ish stajiga ega bo'lish maqsadida har yili bazaviy hisoblash miqdorining 1 baravari (hozirda - 340 min s'm) miqdorida joriy yilning 1 dekabrqa qadar pensiya sug'urtasiga to'lov (ijtimoiy soliq) byudjetdan tashqari pensiya yo'naltiriladi, to'lovchiga e'sa ish staji va nafaka yozib boriladi.

3. O'z - o'zini band qilgan shaxslar o'z maxsulotlarini (ishlarini, xizmatlarini) reklama qilish va ular sifati to'grisida iste'molchilar fikr-mulohazalarini olish xamda kredit olish xuquqiga egadirlar.

4. Бегона tovar sotuvchisi o'z - o'zini ish bilan ta'minlaydiganlarga xaridorlar bilan hisob-kitob qilish uchun onlayn kassa bergan bo'lsa yoki mijoz tovarni oldindan to'lagan xolda va uni yetkazib beruvchi kuryer kerak bo'lsa, kuryer sifatida o'z-o'zini ish bilan ta'minlashi mumkin.

5. O'z-o'zini ish bilan ta'minlaydiganlar jismoniy shaxslar bilan, ya'ni oddiy fuqarolar bilan, shuningdek yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar bilan hamkorlik qilishlari mumkin.

Shu bilan birga, o'z-o'zini ish bilan ta'minlaydiganlarga quyidagi faoliyat turlari bilan shug'ullanish man etiladi:

1. Акtsizosti tovarlari va markirovka qilinadigan tovarlarni (alkogol, tamaki, benzin, yengil avtomobillar, ba'zi turdagi kiyimlar, poyabzal, parfyumeriya, zargarlik buyumlari va boshqalar)ni sotish;

2. O'zining ishlab chiqarishidan tashqari har qanday tovarlarni qayta sotish. Masalan, tayyor o'yinchoqni sotib olib, uni qayta sotolmaydi, uni faqat o'zi ishlab chiqargandagina mahsulot sifatida sotishi mumkin;

3. Foydali qazilmalar (ko'mir, neft, gaz, qum, ohak va boshqalar)ni qazib olish va sotish;

4. Topshiriq shartnomasi, komissiya yoki agentlik shartnomasi bo'yicha ishlash, ya'ni vositachi bo'lish va boshqa shaxsning manfaati uchun ba'zi harakatlar qilish;

5. Tijorat, ko'chmas mulkini ijaraga berish, ko'chmas mulk va transport vositalarini sotish bilan shug'ullanish;

6. Tovar sotuvchisi manfaati uchun kuryer bo'lish va mijozlardan pul olish.

Quyidagilar o'z-o'zini ish bilan ta'minlovchilar qatoriga kiritilmaydi:

- notariuslar;
- arbitraj menejerlari;
- advokatlar;
- vositachilar.

2024 yilning 1 apriliga qadar faoliyat turining bittasi eki bir nechtasi bilan shug'ullanuvchi o'z-o'zini ish bilan band qiluvchi shahs olgan daromadining miq'yosidan kat'iy nazar byudjetga hech qanday soliq to'lamas edi. Ammo, yaqinda joriy ethilgan qarorga muvofik uzini o'z-o'zini ish bilan band qiluvchi shahs shu yilning

1 apreldan 1 yillik daromadi miqdori 1 milliard soʻmdan oshib ketisa, jismoniy shahslar toʻlaydigan daromad soligʻini toʻlashlari shart.

Ilgari, agar oʻz-oʻzini ish bilan taʼminlaydiganlar bir yilda 4 oy davomida yakka tadbirkor maqomida faoliyat yuritib 400 million soʻm daromad olgan, qolgan 8 oyida oʻz-oʻzini ish bilan taʼminlovchi maqomida ishlab, 800 million soʻmlik daromad qilgan va 1 yilda faqat 400 milliondan 4 foizli stavka bilan soliq toʻlangan, 800 million soʻmdan umuman soliq toʻlamagan, yaʼni oʻz-oʻzini ish bilan taʼminlovchi maqomida ishlovchi sifatida olgan daromadidan umuman soliq toʻlamas edi.

### **Xulosa**

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, oʻz - oʻzini band qilganlar yunalishining amaliyotga qilinishi mamlakatimizda muhim ahamiyatga eʼga boʻlgan kambagʻallikka kurash coxasida eytakchi rolga eʼga eʼkanligi va temir daftar, ayollar daftari va yoshlar daftariga kiritilgan jismoniy shahslar sonining keskin kamaishiga olib kelishni boshladi.

Shundai qilib, bu samarali faoliyatni yanada takomilashtirish masaladida:

- oʻz - oʻzini band qilgan fukorolarning shugʻullanishi mumkin boʻlgan faoliyat turlarini uzluksiz kengaitirib borish kerak;

- yillik daromadi 1 milliard soʻmdan oshganda jismoniy shahslar toʻlaydigan daromad soligʻini toʻlash tartibini bekor qilish lozim. Aks holda, bu oʻz - oʻzini ish bilan taʼminlovchi shahs soliqdan qochishning nokonuniy yoʻllarini qidira boshlaydi va baribir toʻlamaslikka harakat qiladi.

### **Foidalanilgan adabiyotlar ruyhati**

1. Oʻzbekiston Respublikasi va Konstitutsiyasi. <https://lex.uz/docs/>
2. Oʻzbekiston Respublikasi va Soliq Kodeksi (Yangi Tahriri).  
<https://lex.uz/docs/>
3. Xudoyqulov S. / Soliq nazariyasi. / Darslik. T: Iqtisodiyot. 2019.
4. Vahobov A.V., Joʻrayev A.S. / Soliq va soliqqa tortish. / Darslik. T.: Iqtisodiyot-Moliya. 2019.
5. Niyazmetov I.M. / Soliq tizimi. / T: Akademiya. 2018.
6. Mutalov A., Mtalova D. / Kichik biznes va tadbirkorlikni soliqqa tortish. T.: Iqtisodiyot, 2013.